

2018 yilning 1 noyabr holatiga Buxoro viloyatida 4 ta oliy ta'lim muassasasi va 1 ta filial faoliyat yuritmoqda. Buxoro Davlat Universiteti, Buxoro tibbiyot instituti, Buxoro muhandislik texnologiya instituti, Mir Arab oliy talim madrasasi va Toshkent irrigasiya va qishloq xo'jaligini mexanizasiyalash muhandislari instituti Buxoro filiali.

Buxoro Davlat Universiteti




Buxoro Davlat Universitetida jami 8447 nafar talaba tahsil olyapti. Ulardan 5498(65%) nafarini qizlar tashkil etadi. Jami talabalardan 1942 (23 %) nafari davlat granti asosida, 6505 (77 %) nafari esa to'lov shartnomasi asosida tahsil olyapti. 2018-2019 o'quv yili boshiga bakalavr bosqichiga jami 2743 nafar talaba qabul qilindi. Ulardan 1816 (66 %) nafarini qizlar tashkil etadi. 650 (24 %) nafari davlat granti asosida, 2093 (76 %) nafari esa to'lov shartnomasi asosida tahsil olishni boshladi.

Magistratura bosqichida jami 152 ta talaba o'qiydi. Ulardan 95 (62,5%) nafari qizlar. Davlat granti asosida o'qiyotgan talabalar 40 (26 %) ta, to'lov shartnoma asosida o'qiyotgan talabalar 112 (74 %) tani tashkil etyapti. 152 ta talabaning 89 nafari I-bosqichda, 63 nafari esa II-bosqichda ta'lim olyapti.

2018-yilda 1566 nafar talaba bakalavr maqomini oldi. Ulardan 961 nafari qizlar. 2018-yilda 29 nafar talaba magistr maqomini oldi. Ulardan 17 nafari qizlar.

Buxoro Davlat Universitetida jami 606 nafar pedagog xodimlar talabalarga bilim berib kelyapti. Ularning 331 nafarini ayollar tashkil etadi. 31 nafar fan doktorlari, 147 nafar fan nomzodlari, 15 nafar professorlar va 99 ta dotsentlar ish faoliyatlarini olib boryaptilar.

Talabalarning kurslar bo'yicha taqsimlanishi



Buxoro Tibbiyot Institutida jami 2350 nafar talaba tahsil olyapti. Ulardan 974 (41%) nafarini qizlar tashkil etadi. Jami talabalardan 564 (24%) nafari davlat granti asosida, 1786 (76%) nafari esa to'lov shartnomasi asosida tahsil olyapti.

2018-2019 o'quv yili boshiga bakalavr bosqichiga jami 792 nafar talaba qabul qilindi. Ulardan 248(31%) nafarini qizlar tashkil etadi. 160 (20%) nafari davlat granti asosida, 632(80%) nafari esa to'lov shartnomasi asosida tahsil olishni boshladi.




Magistratura bosqichida jami 85 ta talaba o'qiydi. Ulardan 47(55%) nafari qizlar. Davlat granti asosida o'qiyotgan talabalar 32 (38%) ta, to'lov shartnoma asosida o'qiyotgan talabalar 53 (62%) tani tashkil etyapti. 85 ta talabaning 45 nafari I-bosqichda, 26 nafari esa II-bosqichda, 14 nafari III-bosqichda ta'lim olyapti.

2018-yilda 373 nafar talaba bakalavr maqomini oldi. Ulardan 137 nafari qizlar.

2018-yilda 11 nafar talaba magistr maqomini oldi. Ulardan 6 nafari qizlar.

Buxoro Tibbiyot Institutida jami 300 nafar pedagog xodimlar talabalarga bilim berib kelyapti. Ularning 184 nafarini ayollar tashkil etadi. 14 nafar fan doktorlari, 90 nafar fan nomzodlari, 3 nafar professorlar va 49 ta dotsentlar ish faoliyatlarini olib boryaptilar.

Talabalarning kurslar bo'yicha taqsimlanishi



Buxoro muhandislik texnologiya instituti



Buxoro muhandislik texnologiya institutida jami 5454 nafar talaba tahsil olyapti. Ulardan 965 (18%) nafarini qizlar tashkil etadi. Jami talabalardan 1692 (31 %) nafari davlat granti asosida, 3762 (69 %) nafari esa to'lov shartnomasi asosida tahsil olyapti.

2018-2019 o'quv yili boshiga bakalavr bosqichiga jami 1132 nafar talaba qabul qilindi. Ulardan 166 (15 %) nafarini qizlar tashkil etadi. 290 (26 %) nafari davlat granti asosida, 842(74 %) nafari esa to'lov shartnomasi asosida tahsil olishni boshladi.


Magistratura bosqichida jami 189 ta talaba o'qiydi. Ulardan 63 (33%) nafari qizlar. Davlat granti asosida o'qiyotgan talabalar 85 (45 %) ta, to'lov shartnoma asosida o'qiyotgan talabalar 104 (55 %) tani tashkil etyapti. 189 ta talabaning 97 nafari I-bosqichda, 92 nafari esa II-bosqichda ta'lim olyapti.

2018-yilda 1252 nafar talaba bakalavr maqomini oldi. Ulardan 227 nafari qizlar.

2018-yilda 53 nafar talaba magistr maqomini oldi. Ulardan 12 nafari qizlar.

Buxoro Muhandislik Texnologiya Institutida jami 450 nafar pedagog xodimlar talabalarga bilim berib kelyapti. Ularning 194 nafarini ayollar tashkil etadi. 14 nafar fan doktorlari, 119 nafar fan nomzodlari, 6 nafar professorlar va 53 ta dotsentlar ish faoliyatlarini olib boryaptilar.

Talabalarning kurslar bo'yicha taqsimlanishi



Mir Arab Oliy Madrasasi



Mir Arab Oliy Madrasasi 2017-yilda ish faoliyatini boshladi. 2018-2019 o'quv yilida jami 94 nafar talaba tahsil olyapti. Ulardan 34 tasi 1-kursda, 60 tasi esa 2-kursda shartnoma asosida ta'lim olyapti.


Mir Arab Oliy Madrasasida 26 nafar pedagog xodimlar talabalarga bilim berib kelyapti. Ulardan 1 tasi ayol.

1 ta Fan nomzodi, 2 ta dotsent o'z ish faoliyatlarini olib boryaptilar.

Toshkent irrigasiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Buxoro filiali.

Toshkent irrigasiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Buxoro filialida jami 1465 nafar talaba tahsil olyapti. Ulardan 263 (18%) nafarini qizlar tashkil etadi. Jami talabalardan 317 (22 %) nafari davlat granti asosida, 1148 (78 %) nafari esa to'lov shartnomasi asosida tahsil olyapti.

Talabalarning kurslar bo'yicha taqsimlanishi



2018-2019 o'quv yili boshiga bakalavr bosqichiga jami 304 nafar talaba qabul qilindi. Ulardan 42 (14 %) nafarini qizlar tashkil etadi. 72 (24 %) nafari davlat granti asosida, 232(76 %) nafari esa to'lov shartnomasi asosida tahsil olishni boshladi.

Magistratura bosqichida jami 6 ta talaba o'qiydi. Ulardan 3 nafari qizlar.

2018-yilda 239 nafar talaba bakalavr maqomini oldi. Ulardan 44 nafari qizlar.

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Buxoro filialida jami 103 nafar pedagog xodimlar talabalarga bilim berib kelyapti. Ularning 28 nafarini ayollar tashkil etadi. 4 nafar fan doktorlari, 27 nafar fan nomzodlari, 2 nafar professorlar va 24 ta dotsentlar ish faoliyatlarini olib boryaptilar




Oliy Ta'limning sirtqi bo'limida tahsil olayotgan talabalar

2018-yilda sirtqi bo'limda jami 2653 ta talaba tahsil olyapti. Talabalar umumiy sonidan 2035 (76,7%) tasini qizlar tashkil etadi.

2018 yilda 1576 ta talaba sirtqi bo'limga o'qishga qabul qilindi. Ulardan 1121 (71,1%) tasini qizlar tashkil etadi.

Sirtqi bo'limda o'qiyotgan talabalarning taqsimlanishi




● Buxoro davlat universiteti ● Buxoro muxandislik-texnologiya instituti
● Toshkent Irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti Buxoro filiali


Hududlar, bilim va ta'lim sohalari bo'yicha oliy ta'lim muassasalari talabalarining taqsimlanishi

| | Jami talabalar | Kunduzgi bo'limda | Sirtqi bo'limda | Shu jumladan filialda | Davlat granti bo'yicha o'qiyotganlar | Talabalar umumiy sonidan-qizlar |
|---|----------------|-------------------|-----------------|-----------------------|--------------------------------------|---------------------------------|
| BUXORO VILOYATI | 20895 | 18242 | 2653 | 1553 | 4678 | 9943 |
| shu jumladan bilim va ta'lim sohalari bo'yicha: | | | | | | |
| GUMANITAR SOHA | 10736 | 8456 | 2280 | 88 | 1863 | 7533 |
| IJTIMOIIY SOHA,IQTISODIYOT VA HUQUQ | 551 | 492 | 59 | | 107 | 161 |
| ISHLAB CHIQRISH TEXNIKA SOHASI | 5643 | 5411 | 232 | 330 | 1758 | 871 |
| QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI | 1201 | 1119 | 82 | 1135 | 256 | 228 |
| SOG'LIQNI SAQLASH VA IJTIMOIIY TA'MINOT | 2173 | 2173 | | | 544 | 916 |
| XIZMATLAR SOHASI | 591 | 591 | | | 150 | 234 |

Oliy ta'lim muassasalari talabalarining yoshi bo'yicha taqsimlanishi




Oliy ta'lim muassasalari talabalarining o'qitish tillari bo'yicha taqsimlanishi



Oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchi xodimlari soni

Asosiy shtatdagi xodimlar 1485 ta, ulardan ayollar esa 738 tani tashkil etadi. Ulardan ilmiy darajaga ega bo'lganlar ya'ni fan doktori 63 tani, fan nomzodi 384 tani tashkil etadi. Ilmiy unvonga ega bo'lganlar ya'ni professorlar 26 ta, dotsentlar 227 tadan iborat.



Buxoro viloyat statistika boshqarmasi
Ijtimoiy soha statistikasi bo'limi
F.Xafizova
(65) 223-81-65
(71) 230-83-18